

**BUGUNGI KUNDA ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHISHNING  
QONUNY ASOSLARI**

*Azimova Nilufar Djobborovna*

*Norin tumani MMTB ga qarashli 44-sonli*

*umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

*Rejabbayeva Umida Abdulxamidovna*

*Namangan shahar 3-sonli umumiy*

*o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kundagi dolzarb muammo zo'ravonlikka chek qo'yishdagi davlat siyosati va qonunchilikdagi yangiliklar haqida fikrlar yoritilgan

**Kalit so'zlar:** zo'ravonlik, bulling, jismoniy zo'ravonlik, ruhiy tushkunlik, depressiya, huquq, erkinlik.

Dunyoda zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, shaxs huquq va manfaatlarini himoya qilish bugungi kunda barcha davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalardan hisoblanadi.

Jahonda va respublikada jinoyatchilikka qarshi kurash, zo'rlik fenomeni vujudga kelishi, zo'ravonlik va tazyiq ishlatuvchining shaxsi tushunchasi, zo'ravonlik va tazyiq ishlatish orqali sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, bunday holatlardan himoyalaniş usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda zo'ravonlik va tazyiqlarning oldini olishga doir o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilganligi natijasida fuqarolarning turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan himoyalaniş darajasi ortib bormoqda.

Darhaqiqat, insonni jinoiy tajovuzlardan himoyalash, jinoyatchilikka qarshi kurash muammosi, amaldagi qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda va jinoyatni jamiyat hayotidagi eng salbiy holat deb qaralgandagina hal qilinishi mumkin hisoblanadi. Mazkur masalaga hukumatimiz alohida e'tibor berib, barcha hujjatlarda jinoyatchilikka, shu o'rinda zo'ravonlik va tazyiqlarning oldini olish va unga qarshi kurash masalasini targ'ib qilmoqda. Shu munosabat bilan i Prezident Shavkat Mirziyoyev xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga doir qonunga imzo chekkan. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida 23-martda, Senatda 6-aprelda ma'qullangan hujjat prezident qo'l qo'yishi bilanoq kuchga kirgan. BMT Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish qo'mitasi O'zbekistonga oilaviy zo'ravonlik uchun alohida ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilashni tavsiya qilib kelayotgan edi. Bu

muammo aslida chegara tanlamaydi. BMT hisobicha, dunyoda har uch ayoldan biri zo'ravonlikni boshdan kechiradi. Yangi qonun targ'ibotchilarining qayd etishicha, amaldagi qonun 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan uning roziligi asosida jinsiy aloqaga kirishgan ayblanuvchi jabrlanuvchining yoshini bilmaganini bahona qilib, yengilroq modda bilan qutulib ketishi mumkin edi. Yangi qonunda bunday hollarda aybdor shaxs jinoiy jazoga tortiladi. 14, 16 yoki 18 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan jinsiy zo'ravonlikni sodir etgan odamning qilmishi, u jabrlanuvchining yoshidan xabardor bo'lgan-bo'lmaganidan qat'i nazar, jabrlanuvchining haqiqiy yoshidan kelib chiqib baholanishi va mutanosib og'ir jazo belgilanishi shart bo'ladi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, yangi qonunda jinsiy jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi bir pog'onaga orttirilib, ilgari uncha og'ir bo'lmagan turdagi jinoyatlar, og'ir jinoyatlar turkumiga, og'ir jinoyatlar esa o'ta og'ir jinoyatlar turkumiga kiritiladi.

Bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlar tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga tenglashtirilib, ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilroq'i bilan almashtirish tariqasidagi insonparvarlik aktlari qo'llanilmasligi belgilanadi. Bolalarning hayoti, sog'lig'i yoki axloqi uchun xavfli bo'lgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning yagona reyestri tuzilib, unga kirganning ta'lim, tarbiya, kasalxonada, sport va ijodiy tashkilotlarida ishlashi hamda yosh avlod bilan bevosita ishlashi taqiqlanadi.

Shaxs turmush o'rtog'i yoki qarindoshiga, sobiq turmush o'rtog'i yoki birga yashayotgan yoki birga farzandga ega shaxsga, nogironga yoki o'ziga o'qitish yoki tarbiyalash uchun topshirilgan shaxsga nisbatan jinsiy zo'ravonlik qilsa, og'irroq jazo bilan yuzlashadi.

O'zbekistonda 2021-2022 yillarda 61 mingdan ziyod xotin-qizning huquqlari buzilishiga doir arz tushgan. Jamoatchi faollarga ko'ra, jabrlanuvchilar aslida millionlarni tashkil etsa ajabmas. Yangi qonunga ko'ra, er yoki xotin o'z turmush o'rtog'ini tahqirlasa, qo'rqitsa, yaqinlaridan ajratib qo'ysa, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi. Turmush o'rtog'ini haqoratlasa, 6 million so'm jarimaga

Jamoat joylarida shaxsga shilqimlik qilish, uning qaddi-qomatini shahvoniy tasvirlash, shu mazmundagi so'zlar bilan chaqirish, izohlash, qiyoslash yoki unga nisbatan shahvoniy maylni ko'rsatuvchi harakatlar uchun alohida ma'muriy javobgarlik belgilanadi. Bu harakatlar uchun 1,5 million so'mgacha jarima yoki 5 sutkagacha qamoq jazosi nazarda tutiladi.

Shaxs tanasining yoki jinsiy a'zolarining yalang'och holdagi foto yoki videotasvirini o'z ichiga olgan axborotni uning rozilgisiz tarqatish, yoki tarqatish bilan qo'rqitish qilmishlari uchun jinoiy javobgarlik belgilanib, 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazoladi.

Voyaga yetmagan farzandiga aliment to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun yangi ma‘muriy jazo turi – aybdorning jamoat ishlarini bajarish orqali ishlab topgan haqining teng yarmini aliment oluvchiga berish.

Amalda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxsga himoya orderi ichki ishlar idoralari tomonidan 30 kunga beriladi. Yangi qonunda yozilishicha, bunday orderning muddati sud tomonidan 1 yil muddatgacha uzaytiriladi.

Himoya orderi bilan zo‘ravonning jabrlanuvchi yashaydigan turar-joy maydoni yoki uning bir qismidan foydalanish, jabrlanuvchining ish joyi yoki boshqa joylarga yaqinlashishi muayyan vaqtga cheklanib, muayyan joylarda bo‘lmaslik, narkologik kasallikdan davolanish kabi qo‘shimcha majburiyatlar yuklatilish mumkin.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda uning hududiy bo‘linmalariga xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlari bo‘yicha hamda ma‘muriy sudlarga bergan da‘volar, arizalar va shikoyatlar davlat bojidan ozod qilinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Zo‘ravonlikka qarshi 16 kun aksiya” tavsiya Respublika tashxis markazi. 2024
2. Karnegi D. “Kak zavoevat druzey i okazivat na nix vliyanie”. M., Progress, 1990.
3. [www.unisef.uz](http://www.unisef.uz)
4. [www.yunesko.uz](http://www.yunesko.uz)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)